



UO'K: 632.78. 95.

G'O'ZANI KUZGI TUNLAM (ILDIZ QURTI) DAN HIMOYA QILISH TADBIRLARI

Sattarov Navro'z Ruziyevich 

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti
Surxondaryo mintaqaviy filiali direktori, q.x.f.n., k.i.x.

Choriyeva Ra'no Jumayevna 

Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Kuzgi tunlam (*Agrotis segetum* Den. Et Schiff) zararkunandasi so'nggi yillarda keng tarqalib, g'o'za maydonlarida to'liq ko'chat olishda salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Mazkur maqolada g'o'za maydonlarida ildiz qurtiga qarshi kurashda agrotexnik, biologik va kimyoviy usullarda kurashishning eng maqbul muddatlari hamda amalga oshirish tartiblari keltirilgan. Tavsiya etilgan agrotexnik tadbirlarni sifatli amalga oshirish evaziga g'o'za nihollarini tunlam qurtlaridan samarali himoya qilish imkoniyatlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: g'o'za, kuzgi tunlam, agrotexnik usul, biologik usul, kimyoviy usul, trixogramma, samaradorlik, hosildorlik.

Abstract. Winter grasshopper (*Agrotis segetum* Den. Et Schiff) has become widespread in recent years, negatively affecting the production of full seedlings in cotton fields. This article presents the most optimal timing and implementation procedures for agrotechnical, biological, and chemical methods of rootworm control in cotton fields. The possibilities of effective protection of cotton seedlings from caterpillars due to the high-quality implementation of the recommended agrotechnical measures are presented.

Keywords: cotton, winter moth, agrotechnical method, biological method, chemical method, trichogram, efficiency, yield.

Аннотация. Озимая совка (*Agrotis segetum* Den. Et Schiff) широко распространился в последние годы, оказывая негативное влияние на получение полных всходов на хлопковых полях. В данной статье представлены оптимальные сроки и порядок проведения агротехнических, биологических и химических методов борьбы с озимой совки на хлопковых полях. Приведены возможности эффективной защиты всходов хлопчатника от гусениц совки за счет качественной реализации рекомендованных агротехнических мероприятий.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Ключевые слова: хлопчатник, озимая совка, агротехнический метод, биологический метод, химический метод, трихограмма, эффективность, урожайность.

KIRISH

Bugungi kunda dalalarda chigit ekish ishlari qizg'in pallada. Respublikamiz sharoitida g'o'za nihollariga bir nechta turdagi so'ruvchi va kemiruvchi zararkunandalar hamda kasalliklar xuruj qiladi. Bular orasida kuzgi tunlam ya'ni, ildiz qurti asosiy zararkunandalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa so'nggi yillarda nafaqat Surxondaryo viloyatida balki respublikamizning deyarli barcha hududlarida bu zararkunandaning miqdori va zarari g'o'za hamda boshqa ekinlarda ortib bormoqda. Demak, ushbu zararkunanda va undan g'o'zani samarali himoya qilish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Umuman olganda qishloq xo'jaligi ekinlarining zararli oranizmlariga qarshi yuqori samarali, ilmiy asoslangan kurash chora tadbirlarini ishlab chiqishda uning biologiyasi, hayot kechirishiga asoslanadi. Shu nuqtai nazardan dastlab kuzgi tunlam haqida qisqacha to'xtalib o'tsak.

Kuzgi tunlam to'liq rivojlanadigan kapalaklar turkumiga mansub hasharot. Kuzda oxirgi yosh qurtlar tuproqning 5-15 sm qatlamiga tushib, qurt holida qishlovga ketadi. Bahorda sutkalik harorat o'rtacha 10°C dan oshganda qurtlar qishlovdan chiqib tuproq yuzasiga tomon harakatlanadi va g'umbakka aylanadi. G'umbakdan birinchi avlod kapalaklari uchib chiqib, qo'shimcha oziqlanadi. Erkak va urg'ochi kapalaklar juftlashib, tuxum qo'yishga kirishadi. Tuxumdan chiqqan birinchi yosh qurtlar dastlab barg eti bilan oziqlanib keyin tuproq tagiga tushib ildiz bilan oziqlanadi. Kuchli zararlangan dalalarda ko'chat soni keskin kamayib, hatto chigitni qayta ekishga to'g'ri keladi [3,4,5].

Dehqonlarimizni bitta savol juda qiziqtiradi, ya'ni ildiz qurtiga qarshi qanday kurashamiz? Mantiqan olib qarasak haqiqatda kurashish qiyindek, chunki qurt tuproq tagida zarar beradi unga na biomahsulot na kimyoviy dori yetib boradi. Lekin buning juda oson usuli bor buning uchun masalaga ilmiy yondoshib e'tibor bilan mehnat qilish kerak. Bu qanday usul degan savolni qo'ysakda bunga birozdan keyin to'xtalib o'tsak. Negaki kuzgi tunlamga qarshi mavsum mobaynida bajariladigan ilmiy asoslangan bir nechta chora tadbirlar bor. Bular quyidagicha:

Birinchidan, kuzgi shudgor va yaxob suvini berish. Bu ikki agrotexnik tadbir tunlamning qishlovdagi qurtlari sonini birmuncha kamaytiradi.

Ikkinchidan, chigitni urug'dorilagich dorilar bilan dorilab ekish. Bunda imidaklopid, tiametoksam tarkibli dorilardan foydalaniladi. Bu usul asosan so'ruvchi zararkunandalarga qarshi mo'ljallangan bo'lsada g'o'zani ildiz qurtidan ham himoya qiladi.

Uchinchidan, endi boyagi bu qanday usul? degan savolga qaytsak. Umuman olganda jamiyatda, hayot faoliyatimizda bajaradigan har qanday ishimizni o'z vaqtida, maqbul muddatda amalga oshirsak bu muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Xuddi shunday, kuzgi tunlamga qarshi biologik usulni ya'ni trixogramma chiqarishni optimal (eng maqbul) muddatda bajarsak ko'zlangan natijaga erishamiz.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

Negaki kuzgi tunlam tuxumlarini tuproq yuzasiga, o'simlik poyasining tuproqqa yaqin joyiga qo'yadi. Bu qanday amalga oshiriladi? Optimal muddatni qanday aniqlaymiz? Bunda feramon tutqichlar (FT) yordamidan foydalaniladi. Buning uchun mart oyida har 5-15 gektarga bir dona kuzgi tunlam feramon tutqichlari o'rnatilib, 2-3 kunda bir marta nazorat qilinadi. Dastlabki kapalaklar tusha boshlagach zararkunandaning qishlovdan chiqqanligidan xabardor bo'lamiz. Shundan keyin har 2-3 gektarga bir donadan FT o'rnatilib har kuni nazorat qilib, FTga ilingan kapalaklar soni va o'rtachasi daftarga yozib boriladi. Bir kechada bitta FT ga o'rtacha 2-3 dona kapalak ilinsa dalaga gektariga 1 grammdan trixogramma kushandasi chiqariladi. 4-5 kun oralatib yana ikki marta jami uch marta kushanda chiqariladi. Bu yerda bir nozik joyi bor. Trixogramma 5-7 metr radiusga ucha olish imkoniga ega. Shuning uchun uni dalaga tarqatishda bir gektarda 400 ta nuqtaga ya'ni har 5 m² ga, yoki kamida 100 ta nuqtaga ya'ni har 10 m² ga tarqatish kerak. Agar optimal muddatni aniqlab chiqarmasak yoki tarqatish talabiga amal qilinmasa samaraga erishishning imkoni bo'lmaydi.

To'rtinchidan, endi yuqoridagi tadbirlarni o'z vaqtida bajaraolmasak yoki kuzgi tunlam rivojlanishi uchun sharoit qulay kelib o'tkazgan tadbirlarimiz samarasi yetarli bo'lmasa kimyoviy usulga murojaat qilinadi. Agar 1 m² da 0,1 – 0,2 dona qurt mavjud bo'lsa kimyoviy ishlov beriladi. Kimyoviy usulning ham o'ziga xos talablari bor. Birinchidan kimyoviy dori turini to'g'ri tanlash kerak. Ildiz qurtiga qarshi t.e.m. deltametrin yoki t.e.m. emamektin benzoat bo'lgan dorilar yuqori samaraga ega. Kimyoviy ishlovni kechki paytda amalga oshirish kerak, chunki qurtlar tunda tuproq yuzasi tomon harakatlanadi. Imkon qadar ishlovning ertasiga darhol yengil sug'orilsa yoki qator orasiga ishlov berilsa samaradorlik yana ham yuqori bo'ladi [1,2].

Beshinchidan, yana bir atrof muhit uchun xavfsiz usul bor, bu qurtlarni aldamchi yem sifatida begona o'tlar bilan chalg'itish. Ildiz qurti qo'ypechak, sho'ra, olabuta kabi begona o'tlarni xush ko'rib oziqlanadi. Bu o'tlar bor joyda g'o'za bilan deyarli oziqlanmaydi. Chunki g'o'zada ular xush ko'rmaydigan gossipol moddasi bor. Shuning uchun ildiz qurti mavjud dalada ushbu begona o'tlar vaqtincha 1 pm da 4-5 dona maxsus qoldirilsa birinchi avlod qurtlari shu bilan oziqlanadi. Ikkinchi avlod qurtlari paydo bo'lguncha g'o'za ildizi dag'allashib, qurt yeyaolmaydigan holatga keladi. Begona o'tlar maxsus qoldirilgan dalalarda 1 m² 1,5-2 dona qurt mavjud bo'lsa kimyoviy ishlov o'tkazsa bo'ladi.

XULOSA

G'o'za maydonlarida kuzgi tunlamga qarshi kurashda chigit ekish uchun yerni tayyorlashdan toki shonalash davrigacha o'tkaziladigan agrotexnik tadbirlarni optimal muddatlarda sifatli o'tkazish muhim hisoblanadi. Yuqorida keltirilgan tadbirlarni ya'ni urug'dorilash, biologik va kimyoviy kurash usullarini o'z vaqtida, sifatli amalga oshirilsa, kuzgi tunlam tufayli yo'qotiladigan hosil saqlab qolinib, dehqon va fermerlar manfaatdorligi oshadi.





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

ADABIYOTLAR

1. Сатторов Н., Хўжаев Ш.Т., Хакимова С. Кимёвий усулнинг истиқболлари /И.-амалий конф. мат-ри (ЎзПТИ, 3-5. XII. 2012 й.).– Тошкент, 2012.– 450-452 б.
2. Хўжаев Ш.Т., Саттаров Н., Шокирова Г.Н. Последствия применения пестицидов для защиты растений /Тезисы докл. на межд. н.-практич. конф. Молодых учёных, посвящённая году экологии в России (Персп. развития науки и образования в современных экологических условиях). – Россия (с. Солёное Займище), 2017. – С. 11-15.
3. Хўжаев Ш.Т. Ўсимликларни уйғунлашган химоя қилиш тизими ва унинг таркибидаги биологик усулнинг тузилиши ва моҳияти. – Тошкент: “Munis design group”, 2013. – 100 б.
4. Хўжаев Ш.Т., Сулаймонов О.А. Умумий ва қишлоқ хўжалик энтомологияси ҳамда уйғунлашган химоя қилиш тизимининг асослари. – Тошкент : ООО “Янги нашр нашриёти”, 2019-Б.376.
5. Яхонтов В.В. Вредители сельскохозяйственных растений и продуктов Средней Азии и борьба с ними. – Ташкент: Госиздат Р Уз, 1963. – 661 с.